

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Fizika –matematika fakulteti

“Fizika” kafedrasi

5440100 - “Fizika” ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavr darajasini olish uchun

Baratova Maxliyo Ilhom qizining

“Boze-Eynshteyn kondensatida tarqaluvchi to’lqinlar” mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“Ish ko’rildi va himoyaga

ruxsat berildi”

Kafedra mudiri __ __ Sh.Sh. Fayziyev

“ ____ ” ____ 2019 y.

Ilmiy rahbar: ____ Sh.Sh. Fayziyev

“ ____ ” ____ 2019 y.

Taqrizchi: ____ D.E. Hayitov

“ ____ ” ____ 2019 y.

“Himoya qilishga ruxsat berildi”

Fakultet dekani _____ dots. M.I. Daminov

“ ____ ” ____ 2019 y.

Buxoro-2019y.

Mundarija

Kirish.	3
I- BOB. BOZE -EYNSHTEYN GAZINING ASOSIY XUSUSIYATLARI	8
1.1 Boze - Eynshteyn ideal gazining holat tenglamasi	9
1.2 Tashqi maydonlar ta'siridagi Boze - Eynshteyn gazining muvozanat sharti	21
1.3 Kuchli o'zaro ta'sirlashuvchi zarralardan iborat Boze -Eynshteynining xossalari	27
I bobning xulosasi.	35
II - BOB. BOZE - EYNSHTEYN KONDENSATIDA TARQALUVCHI TO'LQINLAR	36
2.1 Boze - Eynshteyn kondensatida yuzaga keluvchi kollektiv harakatlar	36
2.2 Boze - Eynshteyn kondensatida tarqaluvchi nochizig'iy tovush to'lqinlari	41
2.3 Boze - Eynshteyn kondensatini tavsiflovchi nochizig'iy to'lqin funksiya	54
II- bobning xulosasi.	63
Xotima.	64
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.	65

KIRISH.

“Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo’lib, dunyo miqyosida o’z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo’sh kelmaydigan insonlar bo’lib kamol topishi, baxtli bo’lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”

Sh.M.Mirziyoyev.

Beshta muhim tashabbus – ertamiz egalari istiqboli yo'lida

Keyingi yillarda yurtimiz yoshlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. 2017 yil 30 iyunda tashkil etilgan O‘zbekiston yoshlar ittifoqi yoshlarning talab va istaklarini birlashtirgan holda faoliyat olib boryapti. Bu jarayonda “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun dasturilamal bo‘lmoqda.

Kuni kecha Davlatimiz rahbari boshchiligida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida yoshlarimizga bo‘lgan e’tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga urg‘u berildi.

Aytish kerakki, turli ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi dunyo manzaralarida yoshlarimizning ma’naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo’sh vaqtini mazmunli o‘tkazish har qachongidan ham dolzarbroq ekanini zamonning o‘zi ko‘rsatib turibdi.

Shu bois Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi.

Birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.

Uchinchi tashabbus aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To'rtinchi tashabbus yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

Beshinchi tashabbus xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.

Prezidentimizning joriy yilda Sirdaryo hamda Namangan viloyatlariga qilgan amaliy tashrifi davomida mazkur hududlardagi tuman va shahar kutubxonalariga bir necha yuz ming nusxada badiiy adabiyotlar yetkazib berildi. "Ma'rifat karvoni" tashkil etildi. Yoshlar uchun 25 ming dona kitob, 80 turdagi sport jihozlari va musiqa asboblari yetkazib berildi.

Mazkur 5 tashabbus keng jamoatchiligimiz tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. Endilikda ushbu tajribani yurtimizning barcha hududlarida keng joriy qilish masalalari muhokama qilindi.

Madaniyat vazirligi va Xalq ta'limi vazirligiga hokimliklar bilan birgalikda tuman va shaharlarda madaniyat markazlari va umumta'lim maktablarida yoshlarning qiziqishidan kelib chiqib, qo'shimcha 1,5 mingta to'garak tashkil etish vazifasi qo'yildi.

Tashabbuskor iste'dodli yoshlar va mahalliy homiylarni jalb etgan holda, madaniyat markazlarida badiiy-havaskorlik jamoalari, yoshlar teatr-studiyalari va "Yoshlar klublari" tashkil qilish zarurligi ta'kidlandi.

Taniqli san'atkor va iste'dodli ijodkorlarni tumanlardagi madaniy ishlarga ko'makchi sifatida biriktirish yaxshi natija berayotganini inobatga olib, bu tajribani butun mamlakatga yoyish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Unga muvofiq, taniqli artistlar tuman va shaharlarga ijodiy maslahatchi sifatida biriktirilib, o'sha joylarda madaniyat va san'atni rivojlantirishga mas'ul bo'ladi, tuman va shaharlar hokimlari esa ushbu ishlarga moddiy va tashkiliy jihatdan yordam beradi.

Musika va san'at sohasida oliy ma'lumotli kadrlarni ko'paytirish masalasiga ham e'tibor qaratildi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim hamda Xalq ta'limi vazirliklariga muayyan mavzular bo'yicha tarix darslarini muzeylar, tarixiy obidalar, qadamjo va teatrlarda sayyor o'tkazilishini tashkil qilish topshirildi.

Ikkinchi tashabbusga doir masalalar muhokama qilinar ekan, diyorimizda 12 mingdan ziyod sport inshootlari borligi, lekin yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sportga qamrab olish darajasi yetarli emasligi qayd etildi. Umumta'lim maktablarining sport anjomlari bilan jihozlanish ko'rsatkichi mamlakat bo'yicha 56 foizni, jumladan, Surxondaryo viloyatida 12 foizni, Xorazmda 14 foizni, Qoraqalpog'istonda 15 foizni tashkil etadi, xolos.

Yig'ilishda yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish borasidagi chora-tadbirlar belgilab berildi.

Tuman va shaharlar hokimlarining yoshlar masalalari bo'yicha o'rinbosarlariga mutaxassislar bilan birgalikda yoshlarning sport turlariga qiziqishi hamda sport inshootlarining jihozlanish darajasini o'rganib, shu asosda takliflar berish, Vazirlar Mahkamasiga ularni amalga oshirish uchun zarur mablag'lar manbasini aniqlash vazifasi yuklatildi.

Olis va chekka qishloqlarda yengil konstruksiyali sendvich panellardan kichik sport zallari va sun'iy qoplamali maydonlar qurish, tashabbuskor tadbirkorlarga sport inshootlari tashkil etish uchun yer ajratish zarurligi ta'kidlandi. Bunday tadbirkorlarga O'zmilliybank tomonidan "Yoshlar – kelajagimiz" dasturi doirasida imtiyozli kreditlar ajratiladi.

Joylardagi sport maktablariga xalqaro musobaqalarda g'olib bo'lgan taniqli sportchilarni rahbar etib tayinlash, shuningdek, sportchilarni oliy o'quv yurtlarining maxsus sirtqi bo'limlarida maqsadli o'qitish yaxshi natija berishi qayd etildi. Bolalar va o'smirlar sport maktablari sonini ko'paytirish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Mavzuning dolzarbligi. So'nggi yillarda turli noxizigiy muhitlardagi Boze - Eynshteyn kondensatsiyasining hosil bo'lish shartlari va xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunga sabab Boze - Eynshteyn kondensatsiyasi kondensirlangan muhitlarning o'ta past temperaturalar sharoitidagi xossalari tadqiq etishga imkon beradi. Shuningdek o'tkazilgan eksperimental va nazariy tadqiqotlar natijalariga ko'ra Boze - Eynshteyn kondensatsiyasi yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchanlik mexanizmini tushinishga ham yordam beradi.

Yuqorida keltirilgan dalillar noxizig'iy muhitlardagi Boze-Eynshteyn kondensatsiyasi xususiyatlarini o'rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Ishning maqsadi. Bitiruv malakaviy ishida Boze - Eynshteyn kondensatsiyasining xossalari ideal gaz yaqinlashuvida hamda uni tashkil qiluvchi zarralar orasidagi o'zaro ta'sirni inobatga olingan holdagi xususiyatlarini tadqiq etish masalasi qo'yilgan.

Bu maqsadga erishish uchun quyidagi masalalar qo'yildi va hal etildi:

1. Boze - Eynshteyn gazining holat tenglamasini keltirib chiqarish.
2. Boze - Eynshteyn gazlarining tashqi statsionar maydon ta'siridagi fazoviy taqsimotini tadqiq etish.
3. Boze - Eynshteyn gazida yuzaga keluvchi kollektiv harakatlarni va elementar uyg'onishlarni o'rganish.

Ishning ilmiy yangiligi:

1. Boze - Eynshteyn ideal gazi zarralarining energiyasi hamda bosimini tavsiflovchi munosabatlar olindi.

2. Boze - Eynshteyn gazi zarralarining og'irlik kuchi va sferik garmonik ossillyator maydonlari ta'siridagi fazoviy taqsimotini tavsiflovchi formulalar keltirib chiqarildi.
3. Boze - Eynshteyn gazida nochizig'iy tovush to'lqinlarining tarqalishi mumkinligi ko'rsatildi.
4. Boze - Eynshteyn kondensatini tavsiflovchi nochizig'iy to'lqin funktsiya, ifodasi keltirib chiqarildi.

Ishnng ilmiy qimmati:

Bitiruv malakaviy ishini ilmiy qimmati shundan iboratki, unda olingan natijalar turli nochizig'iy muhitlardagi Boze-Eynshteyn kondensatsiyasi xususiyatlarini o'rganish uchun muhim asos bo'lib xizmat qilishi mumkin;

Bitiruv malakaviy ishining mazmuni.

Kirishda Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi, uning maqsadi va vazifalari shuningdek ilmiy ahamiyati qisqa yoritilgan.

Ishning birinchi bobida Boze -Eynshteyn gazining asosiy xususiyatlari tadqiq etilgan.

Ishning ikkinchi bobida Boze - Eynshteyn kondensatida tarqaluvchi to'lqinlarni tavsiflovchi tenglamalar va ularning yechimlari keltirib chiqarilgan.

I-bob. Boze-Eynshteyn gazining asosiy xususiyatlari

Bizga ma'lumki, Boze - Eynshteyn kondensatsiyasi 1924 yilda Boze va Eynshteyn tomonidan nazariy jihatdan bashorat qilingan edi. Uning moxiyati kritik temperaturadan past temperaturalarda bozon gazlarining makroskopik to'planishidan iboratdir. Ammo bu bashorat faqat 70 yildan keyingina amalga oshirildi. 1995 - yilda rubidiy va natriylarning siyraklashtirilgan gazlarida hosil qilindi. So'ngra Boze - Eynshteyn kondensati litiy atomlarida ham ko'zatildi. O'ta past temperaturalar sharoitida sovigan atomlarni nazorat qilish imkoniyati magnit va optik texnikalar kombinatsiyasi asosida amalga oshirish mumkinligi ko'rsatildi. Bu maqsadda yaratilgan eksperimental qurilma uchun 2001 -yil Nobel mukofoti berildi.

1995 yilda ishqoriy elementlar gazlarida o'ta past temperaturalarda Boze-Eynshteyn kondensatlarini hosil qilish va tadqiq etish bo'yicha dastlabki 3 ta ish chop etildi. Diamagnit atomlarning kondensatlari potentsial o'raning shaklini o'zgartirish imkonini beruvchi magnit saqlagichlar vositasida ushlab turildi. Shunday qilib o'ta oquvchan He_2 va eksitonlardan iborat Boze kondensatlar oilasiga kutilmagan fizikaviy xossalarga ega bo'lgan yangi a'zolar qo'shildi. Bu esa o'ta past temperaturalar fizikasi sohasida yangi tadqiqotlar yo'nalishlarining ochilishiga olib keldi.

Ishqoriy atomlarning kondensatlarini hosil qilish fizikaning boshqa soxalarida taklif qilingan yangi g'oyalar va texnologiyalarning qo'llanilishi asosida amalga oshirildi. Shuni ta'kidlash kerakki, kondensatlarni ushlab turish uchun birinchi navbatda magnit saqlagichlar ishlab chiqildi. Aslini olganda bunday saqlagichlar yuqori xaroratli plazmani ushlab turish maqsadida ishlab chiqilgan edi. Keyinroq esa bunday tipdagi magnit saqlagichlarni diamagnit holatdagi neytral atomlarni ushlab turish uchun qo'llash taklif qilindi.

Magnit saqdagichlarni gaz bilan to'ldirish lazer sovutish asosida amalga oshirildi. Dastlab bunday sovutish printsipini eslatamiz. Buning uchun bizning ixtiyorimizda chastotalari atomlarning yutilish chastotalariga qaraganda biroz kichikroq bo'lgan lazerlar bor deb faraz qilamiz. U holda ayonki tinch turgan

atom lazer kvant nurlanishini yuta olmaydi. Ammo lazer nurlanishiga qarama - qarshi yo'nalishda harakatlanuvchi atom Dopler effektiga binoan yorug'lik kvantini yuta oladi. Albatta bunda atom oladigan impuls uning dastlabki yo'nalishiga qarama - qarshi bo'ladi. Natijada ma'lum vaqt o'tgach uyg'ongan atom barcha yo'nalishlarda o'rta hisobda izotrop kvant nurlanishini hosil qiladi. Shunday qilib, atomlarni barcha yo'nalish bo'yicha bir vaqtda nurlantirilsa ularni qadamba - qadam magnit saqlagichlarda tormozlash mumkin.

Demak, lazer sovutish gazlarni juda past temperaturalarda magnit saqlagichga to'ldirish imkonini beradi. Keyingi qadam esa gazning bug'lanma sovushi asosida bo'ladi. Buning uchun potentsial o'raning shakli shunday tanlab olinadiki, yuqori chastotali maydonlar vositasida issiqroq atomlar magnit saqlagichdan chiqarib yuboriladi. Natijada bunday usul yordamida submikrokkelvin temperaturalargacha sovutish imkoni paydo bo'ldi. (Ya'ni absolyut 0 haroratga o'ta yaqin temperaturalarni olish mumkin bo'ladi.) Binobarin ishqoriy metallar gazlarining Boze-Eynshteyn kondensatlari shunday temperaturalarda hosil bo'ladi.

1.1 Boze - Eynshteyn ideal gazining holat tenglamasi

Dastlab siyrak Boze gazining 0 temperaturadagi asosiy holatini ko'rib chiqamiz. Buning uchun Feynman tomonidan taklif qilingan quyidagi sifat tasavvurlariga asoslanamiz.

Gaz katta V xajmga ega bo'lgan idishda joylashgan bo'lsin. U holda bu gazdagi alohida olingan zarrachalarning normallashtirilgan to'lqin funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi.

$$\bar{\psi} = \frac{1}{\sqrt{V}}; \quad \int |\psi|^2 dV = 1; \quad |\psi|^2 V = 1; \quad \bar{\psi} = \frac{1}{\sqrt{V}}$$

deb faraz qilamiz.

Endi $r = 0$ nuqtada maxkamlangan zarracha joylashgan bo'lsin. U holda ayonki ik- kinchi zarracha ular orasidagi o'zaro ta'sir oqibatida birinchi zarrachaning to'lqin funksiyasini o'zgartiradi. Yuqoridagi fikrni tasdiqlash

uchun kengligi a ga teng bo'lgan cheksiz balandlikdagi sferik potentsial to'siqni qaraymiz.

$$\text{Ya'ni: } U(r) = \begin{cases} \infty & r < a \\ 0 & r \geq a \end{cases} \quad (1.1.1)$$

Bu yerda a - ikki zarraning bir biriga yaqinlashishi mumkin bo'lgan eng kichik masofani bildiradi. Demak, bu bitta zarrachaning diametriga teng. Zarrachaning holatini tavsiflovchi to'lqin funktsiya $r = a$ nuqtada 0 ga aylanishi lozim. Chunki zarralarning $r < a$ sohada bo'lish ehtimolligi 0 ga teng. Shuningdek $r > a$ sohada esa gaz zarralari o'zaro ta'sirlashmaganligi uchun to'lqin funktsiya erkin zarraning harakatiga mos keluvchi Shryodinger tenglamasini qanoatlantirishi lozim.

$$\Delta \psi = 0$$

$$-\frac{\hbar^2}{2m} \Delta \psi + U(\psi) = 0;$$

$$i\hbar \frac{\partial \psi}{\partial t} = -\frac{\hbar^2}{2m} \Delta \psi + U(\psi);$$

$$\psi = \psi(\vec{r})\Phi(t);$$

$$r < a, \quad U = \infty; \quad \psi = 0$$

$$r > a, \quad U = 0; \quad -\frac{\hbar^2}{2m} \Delta \psi = 0; \rightarrow \Delta \psi = 0;$$

Demak, bu shartdan foydalanib, to'lqin funktsiya uchun quyidagi ifodani olamiz.

$$\psi(r) = \bar{\psi} \left(1 - \frac{a}{r}\right) \quad (1.1.2)$$

$$\text{Bu yerda } \bar{\psi} = \frac{1}{\sqrt{V}} \quad r = a; \quad \psi(\vec{r}) = 0; \quad r > a, \quad \psi(\vec{r}) \approx \bar{\psi}.$$

Boshqacha qilib aytganda (1.1.2) - ifodadagi to'lqin funktsiya qo'zg'almas zarrachada sochilgan to'lqin funktsiyani anglatadi.

Shryodinger tenglamasini (1.1.2) – ko'rinishda yozishda biz to'lqin funktsiyani $r = a$ nuqtada 0 ga aylanadi deb hisobladik. Aslini olganda u V hajmni chegaralovchi nuqtalardagina 0 ga teng bo'ladi. Shuning uchun zarrachaning kinetik energiyasini quyidagicha hisoblash mumkin:

$$\begin{aligned}\varepsilon_0 &= -\frac{\hbar^2}{2m} \int \psi \Delta \psi d\vec{r} = \frac{\hbar^2}{2m} \int \bar{\psi}^2 \left(\nabla \frac{a}{r} \right)^2 d\vec{r} \\ \langle L \rangle &= \int \psi^* \hat{L} \psi d\vec{r}, \quad d\vec{r} = dx dy dz; \\ \hat{L} &= \frac{\hat{P}^2}{2m} = -\frac{\hbar^2}{2m} \Delta; & \hat{P} &= -i\hbar \hat{\nabla}; \\ \hat{P}^2 &= -\hbar^2 \hat{\nabla}^2; & \hat{\nabla} &= \frac{\partial}{\partial x} \vec{i} + \frac{\partial}{\partial y} \vec{j} + \frac{\partial}{\partial z} \vec{k}; \\ \Delta &= \nabla^2 = \frac{\partial^2}{\partial x^2} + \frac{\partial^2}{\partial y^2} + \frac{\partial^2}{\partial z^2};\end{aligned}$$

Bu yerdagi integrallash gaz joylashgan V hajm bo'yicha o'tkaziladi. Bevosita integrallash natijasida zarrachaning kinetik energiyasi uchun quyidagi

ifodani hosil qilamiz. $\varepsilon_0 = \frac{2\pi\hbar^2 a}{mV}$

Bu yerda $\bar{\psi}^2 = \frac{1}{V}$ ekanligi inobatga olingan.

Demak, V hajm makroskopik bo'lsa kinetik energiya qiymati juda ham kichik bo'ladi.

Endi V hajmli idishda juda katta sondagi bir xil zarralar joylashgan deb faraz qilamiz. Agar bu zarralar siyraklashgan gazni hosil qilsa, har bitta zarrachaga mos keluvchi hajm idish hajmiga nisbatan juda ham kichik bo'ladi.

Ya'ni $a^3 \ll \frac{V}{N}$, bu yerda $N \gg 1$. N –zarralar soni.

Bu shart bajarilganda har qanday ikki zarraning bir biriga yaqin masofalardagi to'liq funksiyasini (1.1.2) - ko'rinishida yozish mumkin bo'ladi. Bu erda r zarralar orasidagi masofani bildiradi. Demak, bu holda barcha zarralar juftlarining o'zaro ta'sirini inobatga olsak, bu zarralar sistemasining to'la energiyasini quyidagicha topish mumkin:

$$E = \frac{N(N-1)}{2} \cdot 2\varepsilon_0 \approx N^2 \varepsilon_0 = N^2 \cdot \frac{2\pi\hbar^2 a}{mV} = N \cdot \frac{2\pi\hbar^2 a n}{V}$$

Bu yerda n zarralar konsentratsiyasini bildiradi. (hajm birligidagi zarralar soni).

Bu yerda ε_0 oldidagi had ideal gazdagi o'zaro ta'sirlashuvchi barcha zarralar juftliklar sonini bildiradi.

Demak, bitta zarrachaga mos keluvchi energiya $\varepsilon = \frac{E}{N} = \frac{2\pi\hbar^2 an}{m}$ ifoda bilan aniqlanadi va u tabiiy ravishda kinetik energiyadan V hajmni bitta zarrachaga mos keluvchi hajm $n^{-1} = \frac{V}{N}$ bilan almashtirish natijasida hosil bo'ladi.

Endi bu masalaga boshqacharoq nuqtai nazardan qaraymiz, ya'ni zarralar bir - biriga yaqin joylashganda ularning to'lqin funksiyasi biz yuqorida topgan (1.1.2) - ifodadan unchalik ham farq qilmasligi kerak. Zarralardan birini koordinata boshida mahkamlangan deb qarasak bu ikki zarraning to'lqin funksiyasini tavsiflovchi Shryodinger tenglamasining echimini quyidagi ko'rinishda qidirish mumkin.

$$\psi(r) = \bar{\psi}[1 - \varphi(r)] \quad (1.1.3)$$

Bunda r ikkinchi zarrachaning radius vektori va $\varphi(r)$ topilishi kerak bo'lgan funksiyani bildiradi. Agar holgan barcha zarrachalar idish hajmi bo'yicha bir tekis taqsimlangan bo'lsa, ularning kontsentratsiyasini quyidagicha topishimiz mumkin.

$$n = \frac{N-2}{V} \cong \frac{N}{V}; \quad (N \gg 1).$$

Demak, bu holda N ta zarradan iborat sistemani to'lqin funksiyasini yuqoridagi, ya'ni (1.1.3) - ifodadan to'lqin funksiyasini topish yordamida aniqlash mumkin.

$$\psi_N(\vec{r}_1, \vec{r}_2, \dots, \vec{r}_N) = \psi_1 \psi_2 \dots \psi_N$$

Agar zarralarning har biri boshqalariga bog'liq bo'lmagan holda harakat qilsa natijaviy to'lqin funksiya zarralarning to'lqin funksiyalarning ko'paytmasiga teng bo'ladi.

Buning uchun xuddi avvalgidek ikkinchi zarrachani ham biror $r = \{x, y, z\}$ nuqtaga mahkamlangan deb faraz qilamiz. U holda bu gazdagi ixtiyoriy zarrachaning ikkinchi zarracha bilan o'zaro ta'siri oqibatida yo'zaga keladigan to'lqin funksiyani xuddi avvalgidek (1.1.2) – ko'rinishda qidirish mumkin. Faqat bunda $\psi \rightarrow \psi(\vec{r}_j)$ Ba $r \rightarrow |\vec{r} - \vec{r}_j|$ almashtirish etarli. Bu erda j yuqoridagi r- radius vektorli nuqtaga mahkamlangan zarrachaning tartib raqami.

$$\psi(r) = \bar{\psi} [1 - \varphi(r_j)] \cdot \left[1 - \frac{a}{|r - r_j|} \right] \quad (1.1.4)$$

Bu yerda $[1 - \varphi(r_j)]$ ko'paytuvchining qiymati $\vec{r}_j$ nuqtada hisoblanadi. (1.1.4) ifodadan ko'rinib turibdiki $\frac{a}{r}$ xuddi ((a zaryadli)) zarraning undan r masofada hosil qilgan elektr potentsialiga o'xshaydi. Demak, idishdagi barcha zarralarning r nuqtaga mahkamlangan zarracha to'lqin funksiyasiga ta'sirini hisoblash uchun barcha zarralarning ulushlarini yig'ib chiqish lozim.

Bu masalani hal qilish uchun (1.1.4) - ifoda bilan aniqlanuvchi to'lqin funksiyani quyidagi ko'rinishda yozamiz.

$$\psi(\vec{r}) = \bar{\psi} \left\{ 1 - \frac{a}{|\vec{r} - \vec{r}_j|} - \varphi(\vec{r}_j) + \varphi(\vec{r}_j) \cdot \frac{a}{|\vec{r} - \vec{r}_j|} \right\} = \bar{\psi} \left[1 - \frac{a}{r} - A + \sum_j \frac{a}{|\vec{r} - \vec{r}_j|} \cdot \varphi(r_j) \right] \quad (1.1.5)$$

Bu yerda A quyidagiga teng

$$A = \sum_j \varphi(|r - r_j|) \quad (1.1.6)$$

Bu yerda ikkinchi had r nuqtaga mahkamlangan zarrachaning koordinata boshida joylashgan zarra bilan o'zaro ta'sirini inobatga oladi. Qolgan hadlar esa $\varphi(r)$ ga proporsional bo'lgan o'zaro ta'sirlar ulushini inobatga oladi.

Agar gaz siyraklashgan zarralar majmuasidan iborat bo'lsa ya'ni $a^3 \ll \frac{V}{N}$ ёки $na^3 \ll 1$ bo'lsa yuqoridagi ifodalardagi yig'indini integral bilan almashtirish mumkin. U holda (1.1.5) - ifodaning chap tomonidagi to'lqin funksiya (1.1.3) -

ifoda bilan aniqlanishini inobatga olib $\varphi(r)$ funksiya uchun quyidagi integral tenglamani hosil qilamiz.

$$\begin{aligned} 1 - \varphi(\vec{r}) &= 1 - \frac{a}{r} - A + \sum_j \frac{a}{|\vec{r} - \vec{r}_j|} \cdot \varphi(\vec{r}_j); \\ \varphi(\vec{r}) &= \frac{a}{r} + A - \sum_j \frac{a}{|\vec{r} - \vec{r}_j|} \cdot \varphi(\vec{r}_j); \end{aligned} \quad (1.1.7)$$

$$\sum_j \rightarrow \int n d\vec{r}; \quad r' = r_j$$

$$\varphi(r) = \frac{a}{r} - \int \frac{an}{|\vec{r} - \vec{r}'|} \varphi(r') dr' + A;$$

Endi $\frac{1}{r}$ funksiya quyidagi Laplas tenglamasini qanoatlantirishini inobatga olamiz. $\Delta(\frac{1}{r}) = -4\pi\delta(r)$ Ya'ni u koordinata boshiga mahkamlangan zarraning ulushini inobatga oladi. Chunki $\delta(r)$ Dirak funksiyasi bo'lib u quyidagi shartni qanoatlantiradi.

$$\delta(\vec{r}) = \begin{cases} \infty, & \vec{r} = 0 \\ 0, & \vec{r} \neq 0 \end{cases}$$

Agar (1.1.1) ko'rinishdagi sferik potentsialning kengligi nolga intilsa u $\delta(r)$ funksiyaga intiladi.

$$\Delta\varphi = -4\pi\rho; \quad \text{div}\vec{E} = 4\pi\rho; \quad \vec{E} = -\text{grad}\varphi;$$

$$\Delta\varphi = -4\pi\rho \rightarrow -4\pi\delta(\vec{r}); \quad \rho = \delta(\vec{r})$$

ρ ba $\delta(\vec{r})$ «zaryad» zichligi.

Demak, buni inobatga olib quyidagi tenglamani hosil qilamiz.

$$\varphi(r) = \Delta \left[\frac{a}{r} - \int \frac{an}{|\vec{r} - \vec{r}'|} \varphi(r') dr' + A \right];$$

$$\Delta\left(\frac{a}{r}\right) = a\Delta\left(\frac{1}{r}\right) = -4\pi a \delta(\vec{r});$$

$$\Delta \int \frac{an d\vec{r}' \varphi(\vec{r}')}{|\vec{r} - \vec{r}'|} = \int an d\vec{r}' \left\{ \varphi(\vec{r}') \Delta \frac{1}{|\vec{r} - \vec{r}'|} \right\} = -4\pi an \int d\vec{r}' \varphi(\vec{r}') \delta(\vec{r} - \vec{r}') = -4\pi an \varphi(\vec{r})$$

$$\int_{-\infty}^{+\infty} f(x) \delta(x-a) dx = f(a); \quad -\infty < a < +\infty$$

$$f(x) = 1 \quad \int_{-\infty}^{+\infty} \delta(x-a) dx = 1; \quad \text{yoki} \quad 4\pi a \delta(\vec{r}) = -\Delta \varphi + \chi_0^2 \varphi$$

$$\int f(\vec{r}') f(\vec{r}' - \vec{r}) d\vec{r}' = f(\vec{r}).$$

$$\chi_0^2 = 4\pi a n$$

$$\Delta \varphi = -4\pi a \delta(\vec{r}) + 4\pi a n \varphi(\vec{r});$$

Bu tenglamani echimi esa quyidagi ko'rinishga ega:

$$\varphi(r) = \frac{a}{r} \exp(-\chi_0 r) \quad (1.1.9)$$

Oxirgi ifodadan ko'rinib turibdiki $\varphi(r)$ funksiya zarralar orasidagi masofa oshishi bilan keskin kamayadi. Ya'ni boshqacha qilib aytganda bu funksiya $\chi_0 r \leq 1$ sohadagina muhim rol o'ynaydi.

$$\text{Demak,} \quad r \leq \frac{1}{\chi_0} = \frac{1}{\sqrt{4\pi a n}} = r_0$$

Shunday qilib, $\varphi(r)$ funksiyaning muhim ahamyatga ega bo'ladigan sohasi χ_0 parametr ga teskari proportsionaldir. $\chi_0 r \gg 1; \quad \exp(-\chi_0 r) \rightarrow 0$

Yoki boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, zarralar orasidagi masofa r_0 ga nisbatan juda ham katta bo'lsa, bu funksiyaning qiymati eksponentsial qonun bo'yicha keskin kamayadi. Siyraklashgan gazda esa

$$a^2 \chi_0^2 = \frac{4\pi a^3 N}{V} = 4\pi n a^3 \quad \text{va} \quad n a^3 \ll 1 \text{ bo'lganligi uchun haqiqatdan ham bu}$$

kattalik yoki ko'paytma birga nisbatan juda ham kichik bo'ladi. Demak, $r \approx a$ bo'lganda $\varphi(a) \approx 1$ ga teng. (1.1.2) va (1.1.3) ifodalarga ko'ra esa $\varphi(r)$ funksiya $r > a$ bo'lgan sohadagina ma'noga ega.

Biz yuqorida shartli ravishda ayrim zarralarni ma'lum nuqtalarda mahkamlangan deb hisobladik. Ammo bu shartlar faqat va faqat yuqoridagi formulalarni soddalashtirish maqsadida qilingan edi. Aslini olganda ixtiyoriy i va j raqamli zarralar mahkamlanmagan bo'lishsa biz odatdagidek ularning massa markazi bilan bo'lgan koordinata sistemasiga o'tishimiz mumkin.

$$\begin{cases} m_1 \vec{r}_1 + m_2 \vec{r}_2 = 0 \\ \vec{r} = \vec{r}_1 - \vec{r}_2 \end{cases}$$

$$m_1(\vec{r} + \vec{r}_2) + m_2 \vec{r}_2 = 0$$

$$m_1 \vec{r} + m_1 \vec{r}_2 + m_2 \vec{r}_2 = 0$$

$$\vec{r}_2 = -\frac{m_1}{m_1 + m_2} \vec{r}; \quad \vec{r}_1 = \vec{r} + \vec{r}_2;$$

$$\vec{r}_1 = -\frac{m_1 + m_2 - m_1}{m_1 + m_2} \vec{r}; \quad \vec{r}_1 = \frac{m_2}{m_1 + m_2} \vec{r};$$

Bu sistemada esa i va j zarralarga mos keluvchi laplasianlar yig'indisini quyidagi ko'rinishda yozish mumkin. $\Delta_i + \Delta_j = (\frac{1}{2})\Delta_R + 2\Delta'$ Bunda $\Delta_R = \frac{r_i + r_j}{2}$ ifoda bilan aniqlanuvchi massalar markaziga nisbatan Laplas operatorini bildiradi. Δ' - esa $r_i - r_j$ nisbiy harakatga mos keluvchi Laplas operatoridir.

$$x_1 = \frac{m_2}{m_1 + m_2} x;$$

$$\frac{d}{dx} = \frac{d}{dx_1} \frac{dx_1}{dx} = \frac{m_2}{m_1 + m_2} \frac{d}{dx_1}$$

$$\frac{d}{dy} = \frac{d}{dy_1} \frac{dy_1}{dy} = \frac{m_2}{m_1 + m_2} \frac{d}{dy_1}$$

$$\frac{d}{dz} = \frac{d}{dz_1} \frac{dz_1}{dz} = \frac{m_2}{m_1 + m_2} \frac{d}{dz_1}$$

$$\Delta = \frac{d^2}{dx^2} + \frac{d^2}{dy^2} + \frac{d^2}{dz^2} = \frac{d}{dx} = (\frac{m_2}{m_1 + m_2})\Delta'$$

demak qo'zg'almas massalar markazida $\Delta_R \psi = 0$; $\Delta' \psi = 0$ bo'lganligi uchun biz yuqorida topgan barcha formulalar o'z kuchida holadi, faqat ularda $r = |r_i - r_j|$ ya'ni zarralarning nisbiy koordinatasini bildiradi.

Demak, ixtiyoriy zarralar juftining harakatini tavsiflovchi to'lqin funksiyani ularning massalar markazi bilan bog'liq va nisbiy harakati bilan bog'liq to'lqin funksiyalarning ko'paytmasi sifatida topish mumkin bo'ladi. Bu holda (1.1.6) ifoda bilan aniqlanuvchi A doimiyni hisoblash uchun bu erdagi yig'indini hajm bo'yicha integralga almashtirish mumkin.

$$\begin{aligned}
A &= \sum_j \varphi(|\vec{r}_i - \vec{r}_j|) = \sum_j \varphi(r) \rightarrow \int \varphi(r) n dr = a n \int \frac{1}{r} e^{-\chi_0 r} \cdot 4\pi r^2 dr = 4\pi a n \int e^{-\chi_0 r} r dr \\
\int e^{-\chi_0 r} r dr &= \left| \begin{array}{l} e^{-\chi_0 r} dr = dV \\ r = U \end{array} \right| \begin{array}{l} V = -\frac{e^{-\chi_0 r}}{\chi_0} \\ dr = dU \end{array} = \\
&= -\frac{r}{\chi_0} \cdot e^{-\chi_0 r} + \frac{1}{\chi_0} \int e^{-\chi_0 r} dr = -\frac{r}{\chi_0} e^{-\chi_0 r} + \frac{1}{\chi_0^2} e^{-\chi_0 r} \\
\int_{\infty}^0 e^{-\chi_0 r} r dr &= \frac{1}{\chi_0^2} \quad A = \frac{4\pi \pi a}{\chi_0^2} = 1 \quad chunki \quad \chi_0^2 = 4\pi \pi a
\end{aligned}$$

Endi ushbu gazdagi ixtiyoriy zarraning holgan $N-1 \cong N$ zarrachalar bilan o'zaro ta'siri oqibatida yo'zaga keluvchi energiyani topamiz.

$$\varepsilon = - \int_a^{R_0} (\psi \frac{\hbar^2}{2m} \Delta \psi) 4\pi r^2 dr \quad (1.1.10)$$

Bu yerda $R_0 \gg a$ bo'lib u biz yuqorida ta'kidlagan to'liqin funksiyani normallashtirish shartini qanoatlantirish uchun tanlab olingan.

$$\int |\bar{\Psi}|^2 d\vec{r} = 1 \rightarrow |\bar{\Psi}|^2 \frac{4\pi}{3} R_0^3 = 1$$

Endi $\Psi(r) = \bar{\Psi}[1 - \varphi(r)]$ funksiya $r=a$ da nolga aylanganligi uchun va $\varphi(r)$ funksiya $r \gg a$ sohada keskin kamayganligi uchun $\Psi \Delta \Psi$ hadni quyidagiga almashtirish mumkin. $-\bar{\Psi}^2 (\Delta \varphi)^2$, Endi (1.1.9) ifodadan r bo'yicha hosila olamiz.

$$\varphi(r) = \frac{a}{r} e^{-\chi_0 r}$$

$$\varphi(r) = -\frac{a}{r^2} e^{-\chi_0 r} - \frac{a}{r} \chi_0 e^{-\chi_0 r}$$

$$\varphi(a) \approx -\frac{1}{a} - \chi_0 = -(\frac{1}{a} + \chi_0) = -(\frac{1 + \chi_0 a}{a}); \quad \chi_0 a \ll 1$$

$$\varphi(a) \approx -\frac{1}{a}; \quad (\nabla \varphi)^2 \approx \frac{1}{a^2}; \quad \chi_0 r = 1; \quad r = a; \quad a = \frac{1}{\chi_0}$$

$$\varepsilon = \frac{\hbar^2}{2m} 4\pi \frac{1}{2} |\bar{\Psi}|^2 \frac{R_0^3}{3} = \frac{\hbar^2}{2ma^2}$$

Demak, $\varphi(r)$ funksiyaning ifodasini inobatga olib $na^3 \ll 1$ shart bajarilganda energiya uchun quyidagi ifodani hosil qilamiz.

$$\begin{aligned}\varepsilon_0 &= \frac{2\pi\hbar^2 a}{mV}; \quad \varepsilon = N\varepsilon_0 : \quad \varepsilon = \frac{2\pi\hbar^2 an}{m}; \\ \varepsilon &= \frac{\hbar^2 \chi_0^2}{2m} = \frac{2\pi\hbar^2 an}{m}.\end{aligned}\quad (1.1.11)$$

Demak, ideal gazdagi zarralarning to'la energiyasi quyidagiga teng.

$$E = N\varepsilon = \frac{2\pi\hbar^2 an^2}{m}V \quad (1.1.12)$$

Bu ifodani quyidagi ko'rinishda ham yozish mumkin.

$$E = \frac{2\pi\hbar^2 aN^2}{mV} \quad (1.1.13)$$

Endi ixtiyoriy zarrachaning to'lqin funksiyasini topish uchun biz yuqorida keltirgan (1.1.3) ifodada r ni r_j - ga almashtirish lozim ya'ni:

$$\psi(r_j) = \bar{\psi} \left\{ 1 + A - \sum_{j \neq i} \varphi(|r_i - r_j|) \right\} \quad (1.1.14)$$

Bu ifodadagi $\bar{\psi}$ ham r_j ning funksiyasidir. Lekin ideal gazdagi zarralar hajm bo'ylab tekis taqsimlangan bo'lsa, xuddi avvalgidek $\bar{\psi}$ doimiy va quyidagiga teng: $\bar{\psi} = \frac{1}{\sqrt{V}} = \text{const}$

Bu yerdagi A doimiy ideal gaz uchun birga teng edi ammo gaz zarralari orasidagi ta'sir inobatga olinsa uni alohida hisoblashga to'g'ri keladi. Ko'rinib turibdiki (1.1.14) ifoda bilan tavsiflanuvchi to'lqin funksiya qolgan barcha zarralarning koordinatalariga ham bog'liqdir. Demak, ushbu sistemaning umumiy to'lqin funksiyasini alohida zarralar to'lqin funksiyalarining ko'paytmasi shaklida yozishimiz mumkin:

$$\text{Ya'ni: } \Psi(r_1, r_2, \dots, r_N) = \bar{\Psi}^N \prod_i \left\{ 1 + A - \sum_j \varphi(r_i - r_j) \right\} \quad (1.1.15)$$

Agar i indeks birdan N gacha o'zgaradigan bo'lsa, har bir zarralar jufti orasidagi o'zaro ta'sir ikki marta inobatga olinadi. Shuning uchun siyraklashgan gaz holida yuqoridagi ko'paytmani quyidagicha yozish mumkin.

$$\Psi(r, \dots, r_n) = \bar{\Psi}^N \exp \left\{ \frac{N}{2} - \frac{1}{2} \sum_{i \neq j} \varphi(|r_i - r_j|) \right\} \quad (1.1.16)$$

Bu yerda eksponenta ichidagi ifodada yuqoridagi yig'indi ikkiga bo'lingan holda yozilgan. Bu ifoda albatta zarralar orasidagi masofa $r = |r_i - r_j| \approx a$ bo'lganda o'rinli emas. Chunki bu holda zarralar orasidagi o'zaro ta'sir kuchli namoyon bo'ladi.

(1.1.16) ifodaning ajoyibligi shundan iboratki, u i va j zarralarning o'rin almashinuviga mutlaqo bog'lik emas. Agar biz qarayotgan zarralar majmui tashqi maydonda joylashgan bo'lsa (1.1.15) ifodadagi har bir ko'paytuvchi faqat va faqat bitta koordinatagagina bog'lik bo'ladi. Agar ideal gazdagi zarralar tekis taqsimlangan bo'lsa, xuddi avvalgidek

$$\bar{\psi} = \frac{1}{\sqrt{V}} = \sqrt{\frac{n}{N}} \quad (1.1.17)$$

Ya'ni, ideal gazdagi barcha zarralar uchun bir xil bo'ladi.

Fizikaviy nuqtai nazardan ayonki, biz yuqorida keltirgan va (1.1.16) - ifoda bilan tavsiflanuvchi N ta zarraning umumiy to'lqin funksiyasi bu zarralar sistemasi uchun yozilgan Shryodinger tenglamasining echimidir. Demak, alohida zarralarning to'lqin funksiyalari (1.1.14) - ifodaga ko'ra barcha zarralar uchun bir xil ko'rinishga ega. Shuning uchun aytish mumkinki bu gazdagi zarralarning holatini yagona to'lqin funksiyasi vositasida tavsiflash mumkin.

Endi gazning (1.1.13) - ifoda bilan tavsiflanuvchi to'la energiyasini bilgan holda uning bosimini quyidagi termodinamik munosabatdan foydalanib topish mumkin.

$$\begin{aligned} E &= \frac{2\pi\hbar^2 a N^2}{mV} \\ P &= -\frac{\partial E}{\partial V} = \frac{2\pi\hbar^2 a N^2}{mV^2} = \frac{E}{V} = \varepsilon n \end{aligned} \quad (1.1.18)$$

Demak Boze - Eynshteyn gazining bosimi uning konsentratsiyasiga va ideal gaz zarralarining energiyasiga to'g'ri proporsional ekan.

Bizga ma'lumki adiabatik jarayon tenglamasi $PV^\gamma = \text{const}$ ko'rinishiga ega. Demak, (1.1.18) ifodaga binoan Boze - Eynshteyn gazini adiabatik ko'rsatgichi $\gamma=2$ bo'lgan gaz sifatida qarash mumkin. Endi bu gazda tarqaluvchi tovush tezligining kvadratini topamiz. Bizga ma'lumki zarralar konsentratsiyasining ko'paytmasiga teng. $\rho = \frac{M}{V} = \frac{mN}{V} = mn$

Demak, buni inobatga olib quyidagi natijani hosil qilamiz.

$$C_s^2 = \frac{1}{m} \frac{\partial P}{\partial n} = \frac{4\pi\hbar^2 an}{m^2} \quad (1.1.19)$$

Endi ushbu ideal gazdagi zarraning energiyasi (1.1.11) - ifoda bilan aniqlanishini inobatga olib uni quyidagi ko'rinishda yozish mumkinligini ko'rsatamiz.

$$\varepsilon = \frac{mC_s^2}{2} \quad (1.1.20)$$

Haqiqatdan ham $\varepsilon = \frac{m}{2} \frac{4\pi\hbar^2 an}{m^2} = \frac{2\pi\hbar^2 an}{m}$ C_s -tovush tezligi.

Agar biz qarayotgan gazga o'zgarmas bosimda bitta zarrachani qo'shadigan bo'lsak, u holda gazning energiyasi quyidagi kattalikka ortadi.

$$\varepsilon + \frac{P}{n}$$

$$\Delta Q = \Delta U + P\Delta V = \varepsilon + PV_0 = \varepsilon + P \frac{V}{N} = \varepsilon + \frac{P}{n};$$

$$U = N\varepsilon; \frac{U}{N} = \varepsilon; \Delta U = U(N+1) - U(N) = \varepsilon;$$

Demak, boshqacha qilib aytganda bu gazdan bitta zarrachani chiqarish uchun lozim bo'lgan energiya ham yuqoridagi energiya bilan ifodalanadi.

Demak, bu gazning ximiyaviy potentsiali: $\mu = \varepsilon + \frac{P}{n} = 2\varepsilon$

Ta'rifga ko'ra ximiyaviy potentsial ideal gazdagi bitta zarrachani ajratib chiqarish uchun lozim bo'lgan energiyani bildiradi.

$$P = knT$$

$$\mu = \frac{3}{2}kT + \frac{P}{n} = \frac{3}{2}kT + kT = \frac{5}{2}kT$$

Bu ifoda odatdagi ideal gaz uchun

$$E = U + PV; \rightarrow \frac{E}{N} = \varepsilon + \frac{P}{n}$$

$$\mu = \frac{\partial E}{\partial N} = \frac{\partial N \varepsilon}{\partial N} + \frac{P \partial N}{n \partial N} = \varepsilon + \frac{P}{n}$$

1.2 Tashqi maydonlar ta'siridagi Boze - Eynshteyn gazining muvozanat sharti

Endi Boze-Eynshteyn gazi tashqi maydonda joylashgan holdagi ideal gaz zarralarining muvozanat ko'rib chiqamiz. Bizga ma'lumki, gaz muvozanatda bo'lishi uchun uni tashkil qiluvchizarralar yo'zaga keltirgan ichki bosim tashqi kuchlar ta'sirida yo'zaga kelgan bosimga teng bo'lishi lozim.

$$P_u = P_T; \quad P = \frac{F}{S}; \quad \vec{F} = -\nabla \vec{U}$$

$$P_T = \frac{\nabla U}{D}; \quad \frac{\partial U}{S \partial x} = \frac{\partial U}{\partial x} = \frac{\partial U}{\partial V} = \frac{\partial U}{\partial(\frac{N}{n})} = n \frac{\partial U}{\partial N}$$

$$\nabla P_u = \nabla P_T; \quad \nabla P + n \nabla U = 0; \quad \nabla P S + n \nabla U S = 0; \quad n = \frac{N}{V};$$

$$M \frac{\partial \vec{v}}{\partial t} = \vec{F}; \quad M = mN; \quad mN \frac{\partial \vec{v}}{\partial t} = -\nabla U; \quad m \frac{\partial \vec{v}}{\partial t} = -\frac{\nabla U}{N}$$

$$M = \rho \cdot V = mnV; \quad mnV \frac{\partial \vec{v}}{\partial t} = -\nabla U; \quad F = P S; \quad P = \frac{F}{S} = -\nabla U$$

$$\nabla P + n \nabla U = 0$$

$$n = \frac{m}{4\pi\hbar^2 a} (U_0 - U) \quad (1.2.1)$$

$$\begin{aligned}\nabla P &= \frac{2\pi\hbar^2 a}{m} \nabla n^2 = \frac{4\pi\hbar^2 a n}{m} \nabla n; \\ \nabla P + n \nabla U &= 0; \quad n \left[\frac{4\pi\hbar^2 a}{m} \nabla n + \nabla U \right] = 0; \\ \nabla \left[\frac{4\pi\hbar^2 a n}{m} + U \right] &= 0;\end{aligned}\tag{1.2.2}$$

$$\begin{aligned}\frac{4\pi\hbar^2 a n}{m} + U &= \text{const}; \\ \frac{4\pi\hbar^2 a n}{m} + U &= \frac{4\pi\hbar^2 a n_0}{m} + U_0; \\ n - n_0 &= \frac{m}{4\pi\hbar^2 a} (U_0 - U)\end{aligned}\tag{1.2.3}$$

Endi Boze - Eynshteyn gazi og'irlik kuchi maydonida turgan holdagi gaz konsentratsiyasining o'zgarish qonunini topamiz. Bu holda $U = m \cdot g \cdot z$ (bu yerda z -vertikal koordinata) ekanligini inobatga olib zichlikning o'zgarishi uchun quyidagi qonuniyatni hosil qilamiz.

$$z = 0 \quad U_0 = 0 \quad n_0 = n(0)$$

$$\begin{aligned}n - n_0 &= -\frac{m}{4\pi\hbar^2 a} m g z = -\frac{m^2 g}{4\pi\hbar^2 a} z; \\ n &= n_0 - \frac{m^2 g}{4\pi\hbar^2 a} z\end{aligned}\tag{1.2.4}$$

Bu erdan ko'rinib turibdiki z balandlik ortishi bilan gaz konsentratsiyasi chiziqli qonun bo'yicha kamayadi.

$$n = 0. \quad n_0 = \frac{m^2 g}{4\pi\hbar^2 a} H \quad H = \frac{4\pi\hbar^2 a}{m^2 g} n_0$$

Demak, bu gazning konsentratsiyasi $H = \frac{4\pi\hbar^2 a}{m^2 g} n_0$ balandlikda 0 ga aylanadi.

Obrazli, qilib aytadigan bo'lsak Boze gazni idishga «quyish» mumkin. Uning zichligi chuqurlik ortishi bilan chiziqli qonun bo'yicha o'sadi.

Demak, bu holatni suyuqlik va gaz orasidagi moddaning holati deb qarash mumkin.

$$H = \frac{4\pi\hbar^2 a}{m^2 g} \frac{N}{\frac{SH}{2}} = \frac{8\pi\hbar^2 a N}{m^2 g SH}$$

$$N = \int n dV = \int_0^H n(z) S dz = S \int_0^H n(z) dz = S \frac{n_0 + n(H)}{2} H = \frac{n_0 SH}{2}$$

$$\int_0^H n(z) dz = \int_0^H \left[n_0 - \frac{m^2 g}{4\pi\hbar^2 a} z \right] dz = \int_0^H n_0 \cdot dz - \int_0^H \frac{m^2 \cdot g}{4\pi\hbar^2 a} \cdot z \cdot dz =$$

$$= n_0 \cdot H - \frac{m^2 \cdot g}{8\pi\hbar^2 a} \cdot H^2 = H \cdot \left(n_0 - \frac{m^2 g}{8\pi\hbar^2 a} \cdot H \right) =$$

$$= H \cdot \left(n_0 - \frac{m^2 g}{8\pi\hbar^2 a} \cdot \frac{4\pi\hbar^2 a}{m^2 \cdot g} \cdot n_0 \right) = \frac{n_0 \cdot H}{2};$$

$$N = \frac{n_0 \cdot H \cdot S}{2}; \quad n_0 = \frac{2N}{H \cdot S}; \quad H = \frac{4 \cdot \pi \cdot \hbar^2 \cdot a}{m^2 \cdot g} \cdot \frac{2N}{H \cdot S};$$

$$H^2 = \frac{8 \cdot \pi \cdot \hbar^2 \cdot a \cdot N}{m^2 \cdot g \cdot S} \quad (*)$$

Endi idishdagi umumiy zarralar soni N va gaz joylashgan idishning asosi S bo'lgan hol uchun zarralarning konsentratsiyasi 0 ga aylanadigan balandlikni topamiz. Buning uchun idishdagi umumiy zarralar soni uning barcha qatlamlardagi zarralar sonining yig'indisiga tengligidan foydalanamiz.

$$\int n \cdot dV = N$$

Endi gaz zarralarining konsentratsiyasi (1.2.4) - qonunga binoan o'zgarishini inobatga olib, quyidagi natijani hosil qilamiz.

$$H^2 = \frac{8 \cdot \pi \cdot \hbar^2 \cdot a \cdot N}{m^2 \cdot g \cdot S} \quad (1.2.5)$$

Bu erdan ko'rinib turibdiki, idishga «quyilgan» gaz qatlamining balandligi zarralar soni N va idish yo'zasi S ning nisbatidan olingan kvadrat ildizga proporsionaldir.

Endi Boze - Eynshteyn gazining sferik simmetrik ossillyator ko'rinishdagi potentsial ta'sir qilayotgan hol uchun uning konsentratsiyasining o'zgarish qonunini topamiz. Ma'lumki bu potentsialni quyidagicha ifodalash mumkin.

$$U = \frac{\alpha \cdot r^2}{2} \quad (1.2.6)$$

Bu yerda α - «elastiklik koeffitsienti»

Xuddi avvalgidek ideal gaz zarralarining $r=0$ nuqtadagi zichligini n_0 va ularning bu nuqtadagi energiyasini $\varepsilon_0 = \frac{2 \cdot \pi \cdot \hbar^2 \cdot a \cdot n_0}{m}$ bilan belgilab quyidagi natijani hosil qilamiz.

$$\begin{aligned} n - n_0 &= \frac{m}{4\pi \hbar^2 a} (U_0 - U); \\ 2 \cdot \pi \cdot \hbar^2 \cdot a \cdot n_0 &= m \cdot \varepsilon_0; \\ m &= \frac{2 \cdot \pi \cdot \hbar^2 \cdot a \cdot n_0}{\varepsilon_0}; \\ r &= 0; \quad U_0 = 0 \\ n &= n_0 - \frac{m \cdot U}{4\pi \hbar^2 a} = n_0 - \frac{U}{4 \cdot \pi \cdot \hbar^2 \cdot a} \cdot \frac{2 \cdot \pi \cdot \hbar^2 \cdot a \cdot n_0}{\varepsilon_0} = \\ &= n_0 - \frac{1}{2} \cdot \frac{U \cdot n_0}{\varepsilon_0} = n_0 \cdot \left[1 - \frac{U}{2 \cdot \varepsilon_0} \right] = n_0 \cdot \left[1 - \frac{\alpha}{4 \cdot \varepsilon_0} \cdot r^2 \right]; \\ n &= n_0 \cdot \left[1 - \frac{\alpha}{4 \cdot \varepsilon_0} \cdot r^2 \right]; \end{aligned} \quad (1.2.7)$$

Demak, bu holda gaz zarralarining konsentratsiyasi r -oshishi bilan kvadratik qonun bo'yicha kamayadi. $n=0$ bo'lishi uchun

$$1 - \frac{\alpha}{4 \cdot \varepsilon_0} \cdot r^2 = 0; \quad r^2 = \frac{4 \cdot \varepsilon_0}{\alpha}; \quad r = 2 \cdot \sqrt{\frac{\varepsilon_0}{\alpha}}$$

Demak, bu holda gaz konsentratsiyasi 0 ga aylanadigan «sfera radiusi» mavjud bo'lib u quyidagi ifoda bilan aniqlanadi.

$$\begin{aligned} R &= 2 \sqrt{\frac{\varepsilon_0}{\alpha}}; \quad \int n \cdot dV = N; \quad dV = 4 \cdot \pi \cdot r^2 dr; \\ N &= 4\pi \int_0^R n \cdot r^2 dr = 4\pi \int_0^R n_0 \cdot \left[1 - \frac{\alpha}{4 \cdot \varepsilon_0} \cdot r^2 \right] \cdot r^2 dr = \\ &= 4\pi \cdot n_0 \int_0^R r^2 dr - 4\pi n_0 \int_0^R \frac{\alpha}{4\varepsilon_0} r^4 dr = \end{aligned}$$

$$\begin{aligned}
&= 4\pi \cdot n_0 \cdot \frac{R^3}{3} - \frac{\pi \cdot n_0 \cdot \alpha}{\varepsilon_0} \cdot \frac{R^5}{5} = \pi \cdot n_0 \cdot R^3 \cdot \left[\frac{4}{3} - \frac{\alpha \cdot R^2}{5 \cdot \varepsilon_0} \right] = \\
&= \pi \cdot n_0 \cdot R^3 \left[\frac{4}{3} - \frac{\alpha}{5 \cdot \varepsilon_0} \cdot \frac{4 \cdot \varepsilon_0}{\alpha} \right] = \pi \cdot n_0 \cdot R^3 \left[\frac{4}{3} - \frac{4}{5} \right] = \frac{8 \cdot \pi \cdot n_0 \cdot R^3}{15}; \\
N &= \frac{8 \cdot \pi \cdot n_0}{15} \cdot \left[\frac{4 \varepsilon_0}{\alpha} \right]^{\frac{3}{2}} = \frac{8 \cdot \pi \cdot n_0}{15} \cdot \left[\frac{8 \cdot \pi \cdot \hbar^2 \cdot a \cdot n_0}{m \cdot \alpha} \right]^{\frac{3}{2}} = \\
&= \frac{8\pi}{15} \cdot (8\pi)^{\frac{3}{2}} \cdot \hbar^3 \cdot \left(\frac{a}{m \cdot \alpha} \right)^{\frac{3}{2}} \cdot n_0^{\frac{5}{2}} = \frac{1}{15} \cdot (8\pi)^{\frac{5}{2}} \cdot \hbar^3 \cdot \left[\frac{a}{m \cdot \alpha} \right]^{\frac{3}{2}} \cdot n_0^{\frac{5}{2}}; \\
N^{\frac{2}{5}} &= \frac{1}{15^{\frac{2}{5}}} \cdot (8\pi)^{\frac{6}{5}} \cdot \left[\frac{a}{m \cdot \alpha} \right]^{\frac{3}{5}} \cdot n_0; \\
n_0 &= \frac{15^{\frac{2}{5}} \cdot N^{\frac{2}{5}}}{8\pi \cdot \left(\frac{\hbar^2 \cdot a}{m \cdot \alpha} \right)^{\frac{3}{5}}} = \frac{15^{\frac{2}{5}}}{8\pi} \cdot \left(\frac{m \cdot \alpha}{\hbar^2 \cdot a} \right)^{\frac{3}{5}} \cdot N^{\frac{2}{5}}; \\
n_0 &= \frac{15^{\frac{2}{5}}}{8\pi} \cdot \left(\frac{m \cdot \alpha}{\hbar^2 \cdot a} \right)^{\frac{3}{5}} \cdot N^{\frac{2}{5}} \tag{1.2.8}
\end{aligned}$$

Bu erdan ko'rinib turibdiki sfera markazidagi Boze - Eynshteyn gazi zarralarining konsentratsiyasi va gaz zarralari sonining $2/5$ darajasiga proporsional.

Ya'ni: $n_0 \sim N^{\frac{2}{5}}$

Endi sfera radiusini ideal gazdagi zarralar soni orqali ifodasini topamiz. Buning uchun n_0 konsentratsiya uchun topilgan (1.2.8) - ifodadan foydalanamiz.

$$R = \left(\frac{15 \cdot \hbar^2 \cdot a}{m \cdot \alpha} \cdot N \right)^{\frac{1}{5}} \tag{1.2.9}$$

$$R^2 = \frac{4 \cdot \varepsilon_0}{\alpha} = \frac{8 \cdot \pi \cdot \hbar^2 \cdot a \cdot n_0}{m \cdot \alpha} = \frac{8 \cdot \pi \cdot \hbar^2 \cdot a}{m \cdot \alpha} \cdot \frac{15^{\frac{2}{5}}}{8\pi} \cdot \left(\frac{m \cdot \alpha}{\hbar^2 \cdot a} \right)^{\frac{3}{5}} \cdot N^{\frac{2}{5}} =$$

$$= 15^{\frac{2}{5}} \cdot \left(\frac{\hbar^{\frac{4}{3}} \cdot a^{\frac{2}{3}}}{m^{\frac{2}{3}} \cdot \alpha^{\frac{2}{3}}} \right)^{\frac{3}{5}} \cdot N^{\frac{2}{5}} = 15^{\frac{2}{5}} \cdot \left(\frac{\hbar^2 \cdot a}{m \cdot \alpha} \right)^{\frac{2}{5}} \cdot N^{\frac{2}{5}} = \left(\frac{15 \cdot \hbar^2 \cdot a}{m \cdot \alpha} \cdot N \right)^{\frac{2}{5}}$$

$$R^2 = \left(\frac{15 \cdot \hbar^2 \cdot a}{m \cdot \alpha} \cdot N \right)^{\frac{2}{5}} \Rightarrow R = \left(\frac{15 \cdot \hbar^2 \cdot a}{m \cdot \alpha} \cdot N \right)^{\frac{1}{5}}$$

Oxirgi ifodadan ko'rinib turibdiki Boze - Eynshteyn gazi joylashgan sfera hajmi gaz zarralar sonining 3/5 darajasiga propotsional bo'lar ekan.

Endi ideal gaz zarralarining tashqi potentsial maydon ta'sir qilgan holdagi energiyasini topamiz. Buning uchun (1.1.17) hamda (1.2.3) ifodalardan foydalanamiz.

